



**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

**THE ECONOMIC ESSENCE OF DIVIDENDS AND THEIR ROLE IN
CORPORATE FINANCIAL RELATIONS**

Djuraeva Marjona Durdimurodovna

4th year student, Faculty of Economics, National University of Uzbekistan

Budget Control and Treasury

Annotation. This article examines the economic essence of dividends, their corporate financial relations and the scientific aspects of dividend policy. A number of problems arising in the financial management of joint-stock companies in our country regarding dividend payments and dividend payments are studied and analyzed.

In the process of considering the role of dividends in corporate finance, special attention is paid to the issues of creating a dividend fund to ensure guaranteed payment of dividends in joint-stock companies, as well as the formation of a transparent regime for the forms of dividends, their accumulation and expenditure, as well as increasing the diversity of dividends paid.

Key words: Dividend, corporate management, share, joint-stock companies, dividend policy, investment, investment activity, profit, stock market, company, financial management.

**DIVIDENTNING IQTISODIY MOHIYATI VA KORPARATIV MOLIYAVIY
MUNOSABATLARDA O'RNI**

Djuraeva Marjona Durdimurodovna

O'zMU Iqtisodiyot fakulteti

Budjet nazorati va g'aznachiligi yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada dividendning iqtisodiy mohiyatlari, ularning korporativ moliyaviy munosabatlari va dividend siyosating ilmiy jihatlari ko'rib chiqilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy boshqaruvlaridagi olib borilayotgan dividendlar to'lovlari va dividendlarni to'lash bo'yicha yuzaga kelayotgan bir qancha muammolar o'rganilib, tahlil qilingan.





JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

Dividendlarning korporatsiya moliyasidagi rolini ko'rib chiqish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlarning kafolatli to'lanishini ta'minlash uchun dividend fondini yaratish, shuningdek dividendlarning shakllarini, ularning to'planishi va sarflanishining oshkoralik rejimini shakllantirish, shuningdek to'lanadigan dividendlarning xilma – xilligi oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Dividend, korporativ boshqaruv, aksiya, aksiyadorlik jamiyatlari, dividend siyosati. investitsiya, investitsion faoliyat, foyda, fond bozori, kompaniya, moliyaviy boshqaruv.

KIRISH

O'zbekistonda tadbirkorlik sub'ektlari ichki va xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda dividend siyosatining ahamiyatini tobora ko'proq anglab yetmoqda va tushunmoqda. Ushbu maqola dividend siyosatining ma'nosi va ahamiyatini, shuningdek uning kompaniyalar va aksiyadorlarga ta'sirini o'rganadi. Ushbu siyosat turli shakllarda bo'lishi mumkin, misol uchun, muntazam naqd dividendlar, aksiyadorlik dividendlari yoki ikkalasining kombinatsiyasi. Dividend siyosatining asosiy maqsadi aksiyadorlarni kompaniya daromadlaridan ulush bilan ta'minlash orqali investitsiyalari uchun mukofotlashdan iborat hisoblanadi[1]. Biroq, dividend siyosati boshqa muhim vazifalarni ham bajaradi.

Dividendlarni to'lash samarali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan keyin amalga oshiriladi. Agar loyiha ichki daromad darajasi moliyaviy rentabellik darajasidan yuqori bo'lsa, uni amalga oshirish tavsiya etiladi. Ushbu texnikadan foydalanish aksiyadorlik jamiyatining yuqori iqtisodiy o'sishini ta'minlab beradi va bu bilan bir qatorda uning bozor qiymatini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Umarxodjayeva M.G., Umarov O.S., va Ismailov D.A. tomonidan yozilgan "Dividendlar va dividend siyosati" nomli o'quv qo'llanmasida, "dividendlar aksiyadorlarga kompaniya foydasidan to'lanadigan daromad shakli sifati" deb





JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

ta'riflangan[2]. Mualliflar dividendlarni kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va aksiyadorlar uchun investitsion jozibadorligini oshiruvchi muhim omil deb hisoblaydilar. Ushbu qo'llanmada dividend siyosatining shakllanishi, turlari va ularning kompaniya qiymatiga ta'siri batafsil yoritilgan.

S.E. Elmirzayevning "Korporativ moliya" o'quv qo'llanmasida asosan "dividend siyosati korxonaning bozor qiymatini va mulkdorlar farovonligini oshirish maqsadida foydaning iste'mol qilinadigan va reinvestitsiya qilinadigan qismlarini optimal taqsimlash jarayoni sifatida" deb ta'kidlagan[3]. Muallif dividend siyosatini shakllantirishda aksiyadorlarning manfaatlari va kompaniyaning investitsion ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi.

Dividend siyosati kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, aksiyadorlar bilan munosabatlari va bozor qiymatini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi. To'g'ri shakllangan dividend siyosati kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshiradi va aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qiladi. Shuningdek dividendlar samarali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

NATIJALAR

Dividend – oddiy yoki imtiyozli aksiyaga ega bo'lgan aksiyadorlar o'rtasida aksiyadorlik jamiyatining taqsimlanadigan sof foydasining bir qismi bo'lib hisoblanadi[4]. Dividendlarni to'lashga yo'naltirilgan sof foyda aksiyadorlar o'rtasida tegishli aksiyalarning sonlari va turlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi va hisoblanadi. Qonunchilikka asosan, dividend har chorakda, har olti oyda yoki yiliga bir marta to'lanishi mumkin.

Yakuniy dividendning miqdori Kengash tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lmasligi mumkin, ammo u umumiy aksiyadorlar yig'ilishi tomonidan kamaytirilishi ham mumkin.

1-jadval.

O'zbekiston sanoat uyushmasi bo'yicha dividend statistikasi[5]





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Yil	Hisoblangan dividend (mln so‘m)	To‘langan dividend (%)
2021	3,424,982.20	35.14%
2022	1,320,643.07	76.24%
2023	2,485,974.49	78.70%

O‘zbekistonda dividend to‘lovlari va ularning aksiyadorlar uchun ahamiyati haqida quyidagi statistik ma’lumotlar mavjud[6]:

- ✓ Dividend to‘lovlari hajmi: 2022-yilda O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan jami 5,2 trillion so‘m miqdorida dividend to‘lovlari amalga oshirilgan. Bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 15% o‘shishni ko‘rsatadi.
- ✓ Aksiyadorlar soni: 2022-yil oxiriga kelib, mamlakatda jami 1,8 million aksiyador mavjud bo‘lib, ularning 60% xususiy shaxslar, 40% esa yuridik shaxslardir.
- ✓ Sohalar bo‘yicha taqsimot: Dividend to‘lovlarning eng katta ulushi bank-moliya sektoriga to‘g‘ri keladi – jami to‘lovlarning 35%. Keyingi o‘rinlarda energetika (25%) va telekommunikatsiya (15%) sohalari joylashgan.
- ✓ O‘rtacha dividend rentabelligi: 2022-yilda O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining o‘rtacha dividend rentabelligi 12% ni tashkil etdi, bu esa 2021-yildagi ko‘rsatkichdan 2% punktga yuqoridir.

Bozorda dividend tendensiyalarini tahlil qilish, investorlar munosabatini va bozor analizini tushunish uchun muhimdir. Dividend siyosati sohasidagi zamonaviy yondashuvlar sifatida shu narsa aniqlandiki, oxirgi o‘n yillikda dividendlar roli oshib borishi kuzatilmoqda va ularni muntazam to‘lash amaliyotlari namoyon bo‘lmoqda. Ta’kidlash zarurki, mazkur jarayonlar asosan iqtisodiy, siyosiy va tarixiy asosga ega hisoblanadi. Dividendlar tarzida daromadlar to‘lovchi yuridik shaxslar soliq agentlari





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

deb etiladi. Soliq agenti O‘zbekiston Respublikasi oliq rezidentlari deb e’tirof etiladigan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslarga dividendlar va foizlar tarzida to‘lanadigan daromadlarga nisbatan har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha alohida soliq summasini soliq stavkalari bo‘yicha ko‘rsatilgan daromadlarni ushbu moddada belgilangan tartibda har bir to‘lovga tatbiqan belgilaydi.

MUHOKAMA

Dividendlar oluvchi soliq to‘lovchining daromadlaridan ushlab qolinadigan soliq summasini aniqlashda soliq bazasi har bir oluvchiga nisbatan soliq agenti tomonidan shu oluvchiga to‘g‘ri keladigan soliq solinadigan dividendlar jami summasining sifatida aniqlanadi.

2-jadval.

**O‘zbekiston Ipoteka Refinansiya Kompaniyasi AJ – Dividend to‘lovlari
statistikasi[8]**

Yil	Sof foyda (mln so‘m)	To‘langan dividend (mln so‘m)	Dividend ulushi (%)
2022	180,000	135,000	75%
2023	200,000	157,400	78.7%


2022–2023 yillar oralig‘ida kompaniyaning sof foydasi va dividend to‘lovlari bosqichma-bosqich ortib borgan. Dividend ulushi 75% dan 78.7% gacha ko‘tarilgan. Bu holat kompaniya strategiyasining aksiyadorlar manfaatiga mos ravishda olib





JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

borilayotganini ko'rsatadi va uning investitsion jozibadorligini oshiradi.



1-rasm. O'zbekiston Ipoteka Refinansiya Kompaniyasi AJ bo'yicha (namunaviy ko'rsatkich)[9]

Ushbu diagrammada O'zbekiston Ipoteka Refinansiya Kompaniyasi AJ tomonidan turli yillarda to'langan dividendlarning foiz miqdori ko'rsatilgan. Diagramma uch yillik davrni qamrab olgan va har bir yildagi dividend to'lovi umumiy sof foydaning qanchalik qismini tashkil etganini foizlarda aks ettiradi[10].

- ✓ 2021-yil: Dividend to'lovi kompaniya foydasining 50% qismini tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich kompaniyaning foydaning yarmisini aksiyadorlar o'rtasida taqsimlaganini bildiradi.
- ✓ 2022-yil: Dividend to'lovi 75% gacha oshgan. Bu kompaniya siyosatining aksiyadorlar foydasiga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.
- ✓ 2023-yil: Dividend to'lovi yanada oshib, 78.7% ga yetgan. Bu yuqori darajadagi dividend siyosati orqali kompaniya investorlar ishonchini mustahkamlashga harakat qilganini anglatadi.

Ushbu ko'rsatkichlar kompaniyaning foydani ichki investitsiyalarga emas, balki ko'proq aksiyadorlar foydasiga taqsimlashni ustuvor qilganini ko'rsatadi. Bunday yondashuv odatda aksiyadorlar uchun ijobiy baholanadi va kompaniyaning bozor qiymatini oshirishga xizmat qiladi.





JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES

VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

Soliq summasi dividendlarni to'lash muddatidan kechiktirmay budjetga to'lanadi. Soliq agenti dividendlarni oluvchining talabiga ko'ra, ushbu shaxsga soliq davri uchun daromad summasi va ushlab qolingan soliqning umumiy summasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakldagi ma'lumotnoma taqdim etishi shart[11].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dividend kompaniyaning aksiyadorlar bilan bo'lgan munosabatlarini boshqarishda va investitsion jozibadorligini oshirishda muhim moliyaviy instrument hisoblanadi. To'g'ri shakllangan dividend siyosati aksiyadorlarni jalb qilish, kompaniyaning bozordagi bahosini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, kompaniyaning o'sish strategiyasi va kapital talablarini hisobga olgan holda dividend siyosatini tanlash muhim ahamiyatga ega.

Dividendlar kompaniyalar iqtisodiy qadriyatiga va ularning moliyaviy aloqalari uchun muhim usullardan biri hisoblanadi. Ular kompaniyaning moliyaviy holatini qanday ko'rsatishini ta'minlab beradi va shu bilan bir qatorda investorlarni jalb qila olish imkoniyatini oshiradilar. Undan tashqari aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy siyosatini va dividend siyosatini nazorat qilishda hukumatning vakolatlarini va davlat qonunlarining ahamiyatini oshirish bilan birgalikda aksiyadorlik jamiyatlarining dividendlarni to'lashga layoqatligini ham ta'minlash zarur. Bu islohotlar orqali esa mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, firma va korxonalar sonini ko'paytirish hamda chet el investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatlarini oshirishga erishish mumkin va iqtisodiy siyosatlarni amalga oshirishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azizov X.T. "Raqobat huquqi". O'quv qo'llanma. –T.: TDYuU, 2016,





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

2. Umarxodjayeva M.G., Umarov O.S., va Ismailov D.A. O‘quv qo‘llanma. “Dividendlar va dividend siyosati”-2018, 327b.
3. S.E. Elmirzayev “Korporativ moliya” o‘quv qo‘llanmasi-2017, 289-b.
4. A.A. Temirov. Dividendlar va dividend siyosati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2021.
5. Rahimova N. et al. Davlat xaridi munosabatlarining subyektlari //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 934-940
6. <https://www.stat.uz>
7. <https://www.lex.uz>

